

“EMOJILAR TILI”: RAQAMLI MUHITDA GUMAN KOMMUNIKATSIYANING YANGI SEMIOTIK IFODASI

Joniuzoqova Mashhura Azizjon qizi

Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti

mjoniuzoqova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli kommunikatsiya jarayonida emoji-larning ahamiyati, ularning tilshunoslikdagi oʻrni va jamiyatdagi funksional roli tahlil qilinadi. Emojilar ogʻzaki va yozma nutqni toʻldiruvchi, hissiy holatni ifodalovchi yangi belgilar kod sifatida qaraladi. Muallif emojilar tilining yaratilish sabablari, ijtimoiy tarmoqlardagi funksiyalari hamda zamonaviy til oʻzgarishlaridagi roli haqida fikr yuritadi. Tahlillar TikTok, Instagram va Telegram asosida olib borilgan. Natijada emojilar nafaqat hissiy tus beruvchi, balki ijtimoiy signal, ironik vosita va kontekst belgisi sifatida ham ishlatilayotganini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar. Emoji, raqamli kommunikatsiya, zamonaviy til, tilshunoslik, TikTok, Instagram, semantika, semiotika, ijtimoiy tarmoq.

Zamonaviy kommunikatsiya vositalari, xususan, ijtimoiy tarmoqlar inson nutqining yangi shakllarini yuzaga chiqarmoqda. Shulardan biri — emojilar tilidir. Ular yozma nutqda kayfiyat, emotsiya, munosabat yoki kontekstni bildiruvchi grafik belgilar boʻlib, oddiy matnlarga ekspressivlik va koʻp maʼnolilik bagʻishlaydi. XXI asr tilshunosligida emojilarni yangi semiotik tizim sifatida oʻrganish dolzarb masalaga aylanmoqda. Tahlil va muhokama:

1. Emojilar – universal kodmi yoki madaniy cheklangan tilmi? Birinchi qarashda emojilar umumjahon tushunarli belgilar boʻlib tuyuladi. Biroq, ularning talqini madaniyat, mintaq va yoshga qarab oʻzgarishi mumkin. Misol uchun, “☹” baʼzilar uchun shodlik ifodasi, boshqalar uchun duo qilish maʼnosini beradi.

2. Ijtimoiy tarmoqlarda emoji vositasida nutq qisqarishi. Instagram va TikToldagi post va izohlarda baʼzida faqat emoji yordamida toʻliq jumlaning anglash mumkin boʻlib qolmoqda. Masalan: “☹☹☹” – bu ifoda kuchli taʼsir, hayajon va tasanno (maqtoʻv)ni anglatadi. “☹” – soʻzsiz kinoya, masxara yoki shubha belgisi sifatida ishlatiladi.

3. Tilshunoslikdagi oʻrni. Emojilar pragmatik, semantik va sintaktik jihatdan tahlil qilinmoqda. Ular: Pragmatik: kontekstga bogʻliq maʼno hosil qiladi. Semantik: leksik birlik kabi turli maʼnolarni anglatadi. Sintaktik: baʼzan gap qurilishida ishtirok etadi, ayniqsa qisqartirilgan xabarlarida.

4. Emojilar va til o'zgarishi. Zamonaviy yoshlar o'zaro muloqotda emojilarni so'z o'rnida ishlatadi. Bu hodisa til o'zgarishi jarayonining belgilaridan biri bo'lib, yangi "raqamli lahja" vujudga kelayotganini bildiradi.

Xulosa. Emojilar — bu zamonaviy raqamli muhitda tilni boyituvchi, uni vizual va hissiy jihatdan kuchaytiruvchi yangi kommunikativ vosita hisoblanadi. Ular insonlar orasidagi axborot almashinuvi jarayonini tezlashtiradi, kayfiyat va konnotatsiyani ifodalaydi, biroq ularning noto'g'ri talqini yoki madaniy tafovutlar sababli tushunmovchiliklarga ham sabab bo'lishi mumkin. Tilshunoslar uchun esa bu yangi semiotik tizim sifatida chuqur o'rganilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Danesi, M. (2016). The Semiotics of Emoji: The Rise of Visual Language in the Age of the Internet. Bloomsbury Publishing.
2. Crystal, D. (2011). Internet Linguistics: A Student Guide. Routledge.
3. Evans, V. (2017). The Emoji Code: The Linguistics Behind Smiley Faces and Scaredy Cats. Picador.
4. Pavalanathan, U., & Eisenstein, J. (2015). "Emojis reveal different cultural usage in social media." Proceedings of ICWSM.
5. McCulloch, G. (2019). Because Internet: Understanding the New Rules of Language. Riverhead Books.
6. Uzbek tilshunosligiga oid maqolalar to'plami, 2023-yil, O'zR FA Til va adabiyot instituti.